

## PEDAGOGICAL BASES OF DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF PEDAGOGY

(PhD) Sh.Q.Primov

Jizzakh State Pedagogical University

### ANNOTATION

The article presents ideas about the pedagogical foundations of developing the communicative competence of future teachers. The content of pedagogic subjects is directed to the development of the humanistic basis of communicative competence of students of pedagogic higher education institutions.

**Keywords:** communicative competence, communicative skills, vocational interest motivation, vocational conversation.

### АННОТАЦИЯ

Maqolada bo`lajak o`qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari to`g`risidagi fikrlar keltirilgan. Pedagogika fanlarning mazmunini pedagogika oliv ta`lim muassasalari talabalari shaxsining kommunikativ kompetentligi insonparvarlik asosini rivojlantirishga yo`naltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ kompetentsiya, kommunikativ ko'nikmalar, kasbiy qiziqish motivatsiyasi, kasbiy suhbat.

Ta`lim, fan va madaniyat masalalari bo`yicha Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Texnikaviy va kasb-hunar ta`limi to`g`risida”gi va “Ta`lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to`g`risida”gi konvensiyalarida, “Ma`rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni olib kirish” to`g`risidagi Bitimida dunyo miqyosida o`qituvchilar maqomini oshirish, xalqaro malaka talablari asosida o`qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor berilgan. Jahonda oliv ta`lim muassasalari o`qituvchilari hamda talaba-bo`lajak o`qituvchilarni o`qitish sifatiga nisbatan teng sharoitlar yaratish, tajriba almashish va ularning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ko`maklashish, ta`lim jarayoniga innovasion pedagogik texnologiyalarni kiritishga e'tiborni qaratish alohida ahamiyat kasb etmoqda [1].

Respublikamizda olib borilayotgan keng ko`lamli islohotlar yoshlarimizning xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo`lishi, ularning o`z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etishi uchun katta imkoniyat yaratmoqda. 2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasida “pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish” [2] oliv ta`lim tizimini kompleks rivojlantirish bo`yicha eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Bularning barchasidan biz yagona bir maqsadni ko`zda tutmoqdamiz – O`zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo`lishi shart deb ta`kidlandi. Oliy ta`lim muassasalarida bo`lajak

o`qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish globallashuv jarayoni talablari asosida takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Bo`lajak o`qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish shartlaridan biri unda insonparvarlik kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish hisoblanadi. Biz aynan pedagogik fanlarning mazmuni bo`lajak o`qituvchi kommunikativ insonparvarlik asosini rivojlantirishga ko`maklashishi mumkin deb hisoblaymiz.

Shuning uchun psixologik-pedagogik tayyorgarlik mazmuni alohida e'tibor predmetiga aylanadi. Pedagogika sohasining davlat ta'lim standartlari, malaka talablarida fanlarni tanlovi, mantiqi, psixologik-pedagogik fanlarni o`rganish izchilligi tamoyillariga taalluqlidir. Turli fanlarda materialning takrorlanishini bartaraf etish, talabalarning o`quv yuklamalari hajmi, ularning mustaqil ishlarini tashkil etish to`g`risida ko`p gapirilmoqda.

Deyarli barcha ekspertlar pedagogik fanlar nomenklaturasi aniq mantiqqa ega emasligini, ularning mazmuni esa pedago`gika va ta'lim sohasidagi nazariy tadqiqotlarning zamonaviy holatini aks ettirmasligini ta'kidlaydilar. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika sohasining davlat ta'lim standartlari, malaka talablarida psixologik-pedagogik tayyorgarlik fanlarni o`qitishda shaxsga yo`naltirilgan ta'limga taalluqli masalalar, umuman ta'lim falsafasi, o`quv tarbiya jarayonining insonparvarligi asoslari ko`rib chiqish zarur. Ayrim masalalar esa texnologiya darajasi bilan cheklangan (o`zaro munosabat texnologiyasi, o`z-o`zini rivojlantirish texnologiyasi).

Nazoratning turli ko`rinishlarida etarlicha ko`p joy ajratilgan (tashhis, oraliq, joriy, yakuniy,), ammo o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi munosabatlarni insonparvarlashtirishning usullaridan biri sifatida, o`qituvchilarning ta'lim va tarbiya olishlari jarayonidagi sub'ektiv vaziyatlarining namoyon bo`lishi sifatida o`z-o`zini nazorat qilish, o`zaro nazorat masalasi ko`rib chiqilmagan.

Pedagogik muloqot o`quv-tarbiya jarayonidan alohida, undan tashqari bo`lgan yaxlit sifatida qaraladi. Kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlar, pedagogik qobiliyatlar, pedagogik vaziyat, kasbiy bilimlar va ko`nikmalar, pedagogik muloqot pedagogik nazariyalar, tizimlar, texnologiyalar, pedagogik kasbga kirish mavzularida ochib beriladi.

Шу билан бирга, педагогик фаолият муаммолари бўйича кўп сонли тадқиқотлар материалларига асосланиб, айнан ўқитувчи ва ўқувчининг бевосита педагогик мулокотида педагогнинг касбий аҳамиятли шахсий сифатлари ҳам алоҳида аҳамият касб этади, унинг педагогик вазияти намоён бўлади (у барча ўқитувчиларда инсонпарвар йўналтирилган бўлиши керак), касбий кўникмалар ва малакалар рўйхати эса деярли тўлиқ коммуникатив кўникма ва малакалардан ташкил топганлигини таъкидлаш мумкин.

Shu bilan birga, pedagogik faoliyat muammolari bo`yicha ko`p sonli tadqiqotlar materiallariga asoslanib, aynan o`qituvchi va o`quvchining bevosita pedagogik muloqotida pedagogning kasbiy ahamiyatli shaxsiy sifatlari ham alohida ahamiyat kasb etadi, uning pedagogik vaziyati namoyon bo`ladi (u barcha o`qituvchilarda insonparvar yo`naltirilgan bo`lishi kerak), kasbiy ko`nikmalar va malakalar ro`yxati esa deyarli to`liq kommunikativ ko`nikma va malakalardan tashkil topganligini ta`kidlash mumkin.

Shu tariqa, pedagogik fanlarning bo`lajak o`qituvchining kommunikativ kompetentligi va kommunikativ kompetentligining insonparvarlik asosini rivojlantirishdagi mavjud imkoniyatlari to`liq hajmda foydalanilmaydi.

Shu bilan birga, pedagog shaxsining insonparvarlik kommunikativ kompetentligi o`qituvchining o`quvchilar bilan o`zaro munosabatlari, muloqotlarining xarakterini belgilaydi, pedagog kommunikativ kompetentligining asosi bo`lib xizmat qiladi.

Pedagogika fanlarning mazmunini pedagogika oliy ta`lim muassasalari talabalari shaxsining kommunikativ kompetentligi insonparvarlik asosini rivojlantirishga yo`naltirish uning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ko`maklashadi.

Bolaga insonparvarlik kommunikativ yo`nalganlik o`qituvchining har bir shaxsning mavjud ma`naviyligi va noyobligini anglashini ko`zda tutadi. Shuning uchun pedagogika fanlarni o`qitishda asosiy vazifa bo`lajak o`qituvchini o`quvchilarni xolis, o`zi bilan teng sub`ekt sifatida idrok etishga tayyorlash hisoblanadi [3]. Ammo bo`lajak o`qituvchi o`zaro munosabatlardagi haqiqiy tenglik barchaga bir xilda yondashishdan iborat emasligini anglashi lozim.

Shuning uchun asosiy o`rin har bir o`quvchining individualligini ko`ra olish va qadrlashni tarbiyalash, qayg`urish va hamdard bo`lish qobiliyatini rivojlantirish, boshqacha aytganda, pedagogika Oliy ta`lim muassasalarida ta`lim olish jarayonida talaba shaxsining insonparvar kommunikativ rivojlantirish alohida o`rin egallashi kerak.

Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim asosida insonparvarlik asosida bo`lajak o`qituvchining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning zarurati nafaqat inson, bola bu – avvalo maqsad ekanligi bilan, balki bo`lajak o`qituvchi bevosita pedagogik faoliyatida, zamonaviy mактабда hanuzgacha mavjud bo`lgan, qator yo`nalishlar bilan duch kelishi mumkinligi bilan ham yuzaga kelgan.

Pedagogik ta`limning zamonaviy konsepsiysi asosiy e`tiborni ikkita vazifaga qaratadi. Bu talabada bolaga insonparvarlik, emosional-qadriyatli yo`nalganlikni rivojlantirish. Bo`lajak o`qituvchi shaxsining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, u pedagogning kommunikativ kompetentligi yuqori darajasini va bo`lajak kasbiy faoliyatining muvaffaqiyatini ta`minlaydi.

Tarbiya nazariyasini inson nazariyasining aniq darajasi sifatida qarash qonuniyidir. Uning roli va mavqeini, qadri va vazifasini tushunish tarbiyani talqin etish, pedagogning bolalar bilan o`zaro munosabati xususiyatlari bilan bog`liqdir [4].

Ijtimoiy borliqda insonlarning yaratganlaridan boshqa hech nima yo`qdir, shu sababli ham inson ijtimoiy borliqning sub`ektidir. Ammo yagona o`zi sifatida emas, balki vertikal va gorizontal ijtimoiy aloqalar ishtirokchisi sifatida. Insonning sub`ektliligi o`zaro munosabatlarda, mazkur o`zaro munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

Masalaning bunday qo`yilishi (g`amxo`rlik ko`rsatiladigan bola kim sifatida namoyon bo`ladi) zarurdir, chunki insonga har qanday munosabat ham insonparvarlik hisoblanavermaydi. Insonparvarlik shaxsga nisbatan sub`ekt sifatida qarashni ko`zda tutadi.

Shu tariqa, mazkur maxsus fanning mazmuni, pedagogika bo`yicha me`yoriy fanlardan ko`ra o`qituvchining insonparvarlik kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda katta imkoniyatga egadir. Masalan, barcha ko`rib chiqilayotgan mavzularda pedagogning bolalar bilan o`zaro munosabatlarining shaxsiy-yo`naltirilgan, insonparvarlik aspektlari etakchi vaziyatni egallaydi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan «O`qituvchining kommunikativ kompetentligi» maxsus fanining mazmuni bo`lajak o`qituvchining kommunikativ kompetentligining shartlaridan biri sifatida uning shaxsi kommunikativ kompetentligining insonparvarlik asosini o`z-o`zi rivojlantirishini rag`batlantirga bevosita ko`maklashadigan tarzda belgilandı. Pedagogik fanlarni bo`lajak o`qituvchining insonparvarlik kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga bunday yo`nalganligi uning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ko`maklashadi, bunga biz tomonimizdan o`tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari samara berdi.

### **ADABIYOTLAR**

- 1.YUNESKO xalqaro me'yoriy hujjatlari. //O`zbekcha nashrining mas`ul muharriri L.Saidova. –T.; “Adolat”, 2004, –B 19-62.
- 2.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi PF-4947-son Farmoni.
3. Bushelova B.V. Kultura obsheniya.- Petropalovsk,1990
- 4.Gusinskiy E.N.,Turchaninova Yu.I. Obrazovaniya lichnosti. –M.,1994.